

**YUKSAK HUQUQIY MADANIYAT — MAMLAKAT
TARAQQIYOTI KAFOLATI**

Tursunova Nargiza Najmuddin qizi¹

¹ *BuxDPI, Ijtimoiy fanlar kafedrasi magistranti*
tursunovanargiza045@gmail.com

**MAQOLA
MALUMOTI**

MAQOLA TARIXI:

Received: 02.05.2025

Revised: 03.05.2025

Accepted: 04.05.2025

ANNOTATSIYA:



KALIT SO'ZLAR:

*huquqiy davlat,
huquqiy savodxonlik,
huquqiy madaniyat,
demokratiya, mahalla,
jamiyat, huquq
bilimdoni.*

KIRISH. Ma'lumki, har qanday davlatning taraqqiyoti va kelajak qiyofasi yoshlarning bilim va intellektual salohiyati, jismonan va ma'nан barkamolligiga bog'liq. Demokratik huquqiy davlat, erkin fuqrolik jamiyatini rivojlantirish, hamda yangi O'zbekistonni rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o'rinn egallashiga erishish kabi buyuk maqsadlar oldida yoshlarning huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini rivojlantirish eng ustuvor vazifalardan biridir. Yuksak huquqiy madaniyat - jamiyat taraqqiyotining asosi ekan, demak, ta'lim-tarbiyani modernizatsiyalash, jahon andozalari darajasida tashkil qilishda huquqqiy tarbiya ham alohida ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirish eng avvalo ularda qonunlarga hurmatni shakllantirish, o'z huquq va burchlarini to`liq anglab yetish va rioya etish, befarqlikka yo'l

qo'ymaslik, jinoyatchilikning oldini olish kabi bir qator muammolarning amaliy yechimi bolib xizmat qiladi. Huquqiy savodxonlik fazilati "shaxs - jamiyat -davlat" munosabatlariga muhim ta'sir ko'rsatadi, hayotda mehnat faoliyatida yoki boshqa bir sohada yuzaga keladigan muammolarni adolatli va xolis hal qilish imkonini beradi [1].

Huquqiy madaniyat – kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabat, huquqni hurmat qilish va unga riosa qilishni ifodalovchi atama. Huquqiy madaniyatning jamiyat rivojida tutgan o'rni va ahamiyati Birinchi Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan "Taraqqiyotning o'zbek modeli"da aniq-ravshan ko'rsatib berilgan. Huquqiy madaniyat mamlakatimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish sa'y-harakatlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, har bir fuqaroning qonunlarga qat'iy riosa etishi, qonun bo'yicha yashashi va mehnat qilishini taqozo etadi. Huquqiy madaniyatni takomillashtirish uchun barcha fuqarolarning siyosiy, huquqiy ongini o'stirish, dunyoqarashini kengaytirish, ma'naviyatini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqiy madaniyat makon va zamonda farqlanib, hozirda va istiqbolda amalga oshirilishi lozim bo'lgan manfaatlar ko'lami bilan o'lchanadi. Huquqiy madaniyat insonning bilim va tajribalari orqali narsa va hodisalarni, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni, ularning mazmun-mohiyatini anglash, to'g'ri yoki noto'g'riliagini farqlash va shu asosida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Bugun XXI asr globallashuv davri jamiyatimizdag'i har bir fuqaroning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirishni taqozo etmoqda. Aholining barcha qatlamlari huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish, yuksak darajadagi huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari davlat organlari va tashkilotlarining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Yonimizda turgan eng birinchi masalalardan biri bu- "huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatি qurish" jarayonida, avvalo, har bir fuqaroning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirib borish asosiy va muhim vazifa hisoblanadi. Huquqiy davlat qurishning zaruriy sharti – bu qonunlarning so'zsiz bajarilishidir. Qonunlarning bir xilda va so'zsiz bajarilishi har bir shaxsning o'z vazifasiga munosabati va zimmasidagi ma'suliyatni his qilishiga bog'liqdir. Avvalo huquqiy madaniyat tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, "Huquqiy madaniyat"- jamiyatning qonunchilik darajasi, mavjud qonunlardan aholining xabardorlik darajasi, fuqarolarning, mansabdor shaxslarning huquq normalariga riosa qilishi va ularni bajarmagan shaxslarga nisbatan murosasiz bo'lishi. Huquqiy madaniyat shartli ravishda jamiyat va shaxs huquqiy madaniyatiga ajratiladi. Jamiyatning huquqiy madaniyati huquqiy ongning huquqiy qonuniylikning, qonunlarni takomillashtirish va huquqiy tajribaning muayyan darajasininaks ettiradigan hamda

imsoniyat huquq sohasida yaratgan butun boyliklarni qamrab oladigan ijtimoiy madaniyatning bir turi sifatida ko'riladi. Shaxsning huquqiy huquqiy madaniyat jamiyat huquqiy madaniyatining uzviy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faoliyat huquq sohasida jamiyat taraqqiyotiga va uning madaniyatiga mos keladi va natijada shaxs jamiyatning doimiy huquqiy boyishi sodir bo'ladi [2]. Huquqiy ongni rivojlantirishga jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlar, qabul qilinayotgan yangi qonunlar, yangi qonunlarning loyihalarini aholi orasida muhokama qilinishi, barcha o'quv yurtlarida, maktablarda huquq haqidagi bilimlarni o'rgatish, o'rganish, mazkur fanlardan imtihonlar joriy etish, radio, televiedeniya, vaqtli matbuotlarda huquqiy bilimlarni keng targ'ib va tashviq qilish; aholining mustaqil ravishda, huquqiy bilimlarni o'rganish maqsadida qonun hujjatlarini muntazam chop etib borish; sud, prokuratura, miliitsiya organlarining ish tajribasini ommalashtirib borish; adliya va huquqshunoslik fanlarini rivojlantirish; oshkoraliqni ta'minlash; boshqa davlatlarning huquqiy tajribasini o'rganish va ulardan foydalanish; badiiy adabiyotda, san'atda huquqiy bilimlarni tarqatish, o'yaymizki huquqiy ongni rivojlantirishning omillari bo'lib hisoblanadi. Huquqiy madaniyat fuqarolarning yetukligi va onglilagini ko'rsatuvchi me'yordir. Huquqiy ong, bilim va tasavvurlar insonda tasodifiy ravishda paydo bo'lmaydi. Uni insonning tug'ma xususiyati deyish ham mumkin emas. Inson onadan dono-yu donishmand bo'lib ham tug'ilmaydi. Kishidagi huquqiy ong, huquqiy bilim va madaniyat ta'llim tarbiya, o'qish o'rganish, mehnat qilish, amaliy faoliyat, hayot tajribasi, ajdodlar merosi va namunasi asosida shakllanib, rivojlanib uzlusiz takomillashib boradi.

NATIJALAR

Huquqiy bilimlar va huquqiy ongning yuzaga kelishi va rivojlanishi cheksiz jarayondir. U jamiyat taraqqiyoti asosida yuzaga keladigan obyektiv talab va ehtiyojlar, mavjud imkoniyatlар, shart sharoitlar asosida shakllanadi.

Huquqiy madaniyatning turlari uning tashuvchisiga qarab ajratiladi:

- 1) Jamiyatning huquqiy madaniyati;
- 2) Guruhning huquqiy madaniyati;
- 3) Shaxsning huquqiy madaniyati.

Jamiyatning huquqiy madaniyati - bu butun jamiyatning huquqiy faolligi va ong darajasini bildiruvchi umumiy madaniyatning ma'lum bir qismi. Keng ma'noda jamiyatning huquqiy madaniyatini ma'lum bir davr uchun to'plangan barcha huquqiy bilim va tajribalar yig'indisi sifatida belgilash mumkin. Huquqiy madaniyatsiz jamiyat kelajagini tessavur etib bo'lmaydi. Yoshlarning qalbi va vujudiga go'daklik paytidan boshlab odob ahloq, huquqiy qonun qoidalar haqidagi ilk tasavvur va tushunchalarni singdirishga jamiyatning asosi

bo'lgan oilaning roli va ahamiyati beqiyosdir. Qonunlarimiz asoslaridan xabardor bo'lish yoshlar o'rtasida qonunbuzarlik holatlarini, odob axloqimizga zid xatti-harakatlarning oldini olishda, ularning huquqiy ongi va madaniyatini o'stirishda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Qonunlarni yaxshi bilgan yoshlargina ularga rioya qiladi. Bunday inson o'zini ham oilasini ham, ham himoya qila oladi. Shunday qilib, ijtimoiy ongning tarkibiy qismi bo'lgan huquqiy ong jamiyat taraqqiyotiga, ijtimoiy turmush rivojlanishiga aks ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy g'oyalar, bilim va tasavvurlar, huquqiy nazariyalari jtimoiy hayotning barcha tomonlariga kirib borib, fuqarolarning ongidan o'rin olib odamlar hulq atvoriga, amaliy faoliyatiga mafkuraviy va psihologik ta'sir etadi. Huquqiy ong odamlarni ma'lum tarzda o'zlarini idora qilishga, jamiyat qabul qilgan qonun va qoidalar doirasida faoliyat ko'rsatishga undaydi. Kishilar huquqiy ongi va bilimi rivojlanganlik darajasini ularning ijtimoiy-huquqiy faolligiga qarab aniqlash mumkin. Jamiyat a'zolarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy ma'nnaviy sohalarda, o'z-o'zini boshqarish organlarida faol ishtirok etishlari huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasi o'sib borayotganligidan dalolat beradi. Xususan, kuni kecha 27-oktabrda o`tkazilgan deputatlikka saylovda xalqning ishtiroki uning siyosiy huquqlaridan o'rnida foydalanganidan dalolat beradi. Hozirgi vaqtida O'zbekistonning mustaqil rivojlanish davrida inson qadri, qadr-qimmati yuksak darajaga ko'tarilgan bir vaqtda, inson huquqlari sohasida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga rioya etishni o'rnatuvchi tartib va mexanizmlar ham yaratildi. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9-yanvar PF-5618- sonli "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi.

MUHOKAMA

Ammo aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanilmayapti. "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi farmoniga muvofiq "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiysi" ishlab chiqildi. Konsepsianing asosiy maqsadi va vazifalari - aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishi, o'z huquqlarini biladigan va qonunlarni hurmat qiladigan, huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay oladigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, huquqbuzarlikka nisbatan murosasiz munosabatda bo'ladigan fuqarolarni tarbiyalashdan iborat. Ushbu qonun hujjatini ijrosini ta'minlash borasida "oila-mahalla-maktab" tamoyilini qo'llash ayni maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bundan tashqari maktab, oliy va professional

ta`lim tizimida huquq fanlarini ko`paytirish, maxsus huquq sinflarini tashkil etish va har yili “huquq bilimdoni” ko`rik tanlovini yuqori saviyada o`tkazish va o`qituvchilar orasida tanlovlardan o`tkazish nazarda tutilgan.

Yuridik ma'lumotli kadrlarning barcha tarmoq tizimlarida ta'minlanishi mamlakatimizning bugungi islohotlari tez orada o`z samarasini berishiga, aholi qatlamlarining roziliklari barobarida xalqimiz farovon turmush darajasining ortishiga xizmat qiladi. “O`z burchini bajarishdan mammun odamgina erkin yashaydi”, – degan edi Sitseron. Burch bilan huquq bir-biriga chambarchas bog`liq bo`lib, ularni ayro tasavvur etish qiyin. Chunki huquqini yaxshi bilgan odam burchini ham ado eta oladi. Shu orqali hayotda o`z o`rnini topadi, jamiyat uchun xizmat qiladi. Huquqiy madaniyat rivoji har qanday muammo yechimining asosiy mezonidir. Jamiyatda huquqiy ong, huquqiy madaniyatni yuksaltirish va qonuniylikni mustahkamlashga yo`naltirilgan targ`ibotga alohida e'tibor qaratilayotganining asosiy sababi ham aynan shunda.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, huquqiy madaniyat bosqichma- bosqich shakllanib boradigan jarayon hisoblanadi. Huquqiy madaniyatning yuksalishi esa qonunga itoat tuyg`usini rivojlanishiga olib keldi. Hozirgi kunda mazkur masala davlat siyosati darajasiga ko`tarilmoqda, shu maqsadda fuqarolarning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati, ta`lim-tarbiyasi, huquqiy savodxonligini yanada yuksaltirish, yoshlarning huquq sohasiga bo`lgan qiziqishlarini oshirish, ularni huquqiy jihatdan yetuk va barkamol avlod etib tarbiyalash asosiy maqsad va muddaolardan biri hisoblanadi. Jamiyatda o`zhaq-huquqini biladigan va qonun-qoidalarga og`ishmay amal qiladigan fuqarolar huquqiy davlatning poydevori sanaladi.

Adabiyotlar ro`yxati:

- Amirov Z. "Huquqiy xabardorlikni oshirish huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish vositasi sifatida" // Jamiyat va boshqaruv -2015. №3
- Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. -Toshkent: TDYU, 2018. -94 bet.
- Islomov Z.M. Davlat va huquqning umumnazariy muammolari:huquqni tushunish, huquqiy ong va huquq ijodkorligi. T.:TDYUI, 2005.
- Odilqoriyev X. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. -T.: Sharq, 2002.
- Saidov A.X., Tadjixanov U., Toshqulov J.O'. Mustaqillik va huquqiy mafkura. T., 1995.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-sonli farmoni. QHMMB: 06/19/5618/2452-son 10.01.2019y